



O‘TKIR HOSHIMOV IJODIDA URUSH FOJEASINING INDIVIDUAL TAQDIRLAR ORQALI OCHILISHI (“IKKI ESHIK ORASI” MISOLIDA)

Hotamova Sarvinoz

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti talabasi
sevim0552@gmail.com

Burhonova Feruza

Ilmiy rahbar:

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18068436>

Annotasiya: Ushbu maqola O‘tkir Hoshimovning mashhur “Ikki eshik orasi” romanida Ikkinchi jahon urushining fojeali oqibatlarini individual inson taqdirleri orqali qanday ochib berilganligini tahlil qiladi. Roman qahramonlari – Qora amma, Robiya, Kimsan, Orif oqsoqol va boshqalar timsolida urushning oilalarni parokanda qilishi, sevgi va umidlarning sinovi, insoniy sabr-toqat va qadr-qimmatning saqlanishi realistik va falsafiy jihatdan yoritiladi. Adib urushni nafaqat frontdagi janglar, balki orqadagi millionlab odamlarning ruhiy jarohatlari sifatida tasvirlab, xalq taqdirini shaxsiy hikoyalar orqali umumlashtiradi.

Kalit so‘zlar: O‘tkir Hoshimov, “Ikki eshik orasi”, Ikkinchi jahon urushi, urush fojeasi, individual taqdirlar, oila parokandaligi, insoniy sabr-toqat, sevgi sinovi, ruhiy jarohatlar, xalq taqdiri, realizm, falsafiy yondashuv.

Аннотация: Данная статья анализирует, как в знаменитом романе О’ткира Хошимова «Икки эшик ораси» трагедия Второй мировой войны раскрывается через индивидуальные человеческие судьбы. Через образы героев – Кора амма, Робия, Кимсан, Ориф оқсоқол и других – показывается разрушительное воздействие войны на семьи, испытания любви и надежд, сохранение человеческого достоинства и терпения. Писатель изображает войну не только как бои на фронте, но и как духовные раны миллионов людей в тылу, обобщая судьбу народа через личные истории с реалистической и философской глубиной.

Ключевые слова: O‘tkir Хошимов, «Икки эшик ораси», Вторая мировая война, трагедия войны, индивидуальные судьбы, разрушение семей, человеческое терпение, испытание любви, духовные раны, судьба народа, реализм, философский подход.

Annotation: This article examines how O'tkir Hashimov's renowned novel "Between Two Doors" ("Ikki eshik orasi") reveals the tragedy of World War II through individual human fates. Through the characters—such as Qora amma, Robiya, Kimsan, Orif oqsoqol, and others—the novel depicts the war's devastation on families, the trials of love and hope, and the preservation of human dignity and endurance. The author portrays war not merely as frontline battles but as






profound spiritual wounds inflicted on millions in the rear, generalizing the nation's destiny via personal stories with realistic and philosophical depth.

Key words: O'tkir Hashimov, "Between Two Doors" ("Ikki eshik orasi"), World War II, war tragedy, individual fates, family disintegration, human endurance, trials of love, spiritual wounds, national destiny, realism, philosophical.

O'tkir Hoshimov - el ardoqlagan adib, so'z san'atkori! Adibning barcha asarlari o'zbek va va boshqa gardosh xalqlar mulkiga aylanib ketgan. "Bahor qaytmaydi", "Tushda kechgan umrlar", "Ikki eshik orasi", "Nur borki soya bor", "dunyoning ishlari", "Ikki karra ikki - besh" kabi qissa va romanlari, yuzdan ortiq dilbar hikoyalari, komediya va fojealari xalq orasida juda mashhur bo'lib ketgan.

Kitobxon sifatida men adibning "Ikki eshik orasi" romaniga to'xtalmoqchiman. Ushbu roman 1986- yilda nashr etilgan bo'lib, undagi voqealar Toshkent yaqinidagi qishloqlardan birining chorak asrli hayoti haqida hikoya qiladi. Undagi voqealar urush arafalarida boshlanib, urush yillarida va urushdan keyingi davrda davom etadi. 1966- yildagi Toshkent zilzilasi bilan tugaydi. Romanning kompozitsiyasi ham original. U yetti qismdan iborat, bu gismlar qirq yetti bobdan tashkil topgan. Bu boblar esa qahramonlar tilidan hikoya qilingan. Romandagi voqealarni hikoya qilishda to'qqizta personaj ishtirok etadi. Bu tasvir usuli anchayin qiyin, chunki voqealar tarqalib ketishi, ular orasida uzilish ro'y berishi hech gap emas. Ammo muallif asarning oxirigacha "kalavaning uchini qo'ldan chiqazmaydi". Natijada romanda muayyan ichki yaxlitlik paydo bo' ladi. "Ikki eshik orasi" romanida voqea Toshkent atrofidagi qishloqlardan birida, asosan, ikkinchi jahon urushi yillarida bo'lib o'tadi. Shu bilan birga, adib asarda o'rni- o'rnida qishloq kishilarining urushdan oldingi va urushdan keyingi hayotidan ham hayajonli lavhalar chizadi. Adib asar syujeti va kompozitsiyasini ishlashda mumtoz adabiyotda ("Sab'ayi sayyor" dostonida) mavjud bo'lgan qoliplash san'atidan ijodiy foydalanib, yangilik yaratgan. Roman voqeasi Robiya, Qora amma, Kimsan Xusanov, Muzaffar Shomurodov, Munavvar Aliyeva, Ra'no, Umar zakunchi, Olimjon Komilov kabi turli xarakter va turli toifadagi to'qqizta obraz tilidan hikoyalar tizmasida berilgan. Bu hikoyalar mazmunan bir-biri bilan mahkam bog'langan bo'lib, bir-birini to'ldiradi. Shu tariqa ular romanning bir butun tugal, original va jozibador sujetini hosil qiladi. Asarda asosiy obrazlargina emas, balki Rashid, Abzi, Bashor opa, Oysara, Samadov singari epizodik obrazlar ham kitobxon yodida uzoq vaqt saqlanib qoladi. Asarda sun'iylik yo'q, aksincha ishontirish san'ati kuchli. Adib qaltis, murakkab masalalarni ham, favqulodda topqirlik bilan ishonarli qilib tasvirlaydi. Qora ammaning o'z o'g'li Kimsanning





sevgilisi Robiyani ilojisizlikdan Shomurodga to'y qilib uzatishi, Orif oqsoqolning yoshlik qilib yoldan ozgan keliniga mardlik bilan adolat qilishi, qismatlari chalkashib ketgan Muzaffar va Munavvar sevgisi tasvirlangan sahifalarda ayniqsa bu hol ochiq ko'rinadi. Ayni choqda haqiqatni yuzga aytishdan cho'chimaydigan shartaki, jasoratli odam. U odamlarni baholashda o'z me'yoriga ega — odamning belida belbog'I bo'lishi kerak. Belbog' uning uchun mardlik, tantilik, odamiylik belgisi.


Asarda Kimsan Husanovning ham obrazi muvaffaqiyatli chiqqan. U roman voqealarida kam ishtirok etgan bo'lsa ham ikki bobdagi hikoyasi orqali uning tanti, mard, oriyatli, jasur—belida belbog'i bor yigit ekanligini bilishimiz mumkin. U vatani uchun o'z jonini fido etadi.

Romanda ayollar obraziga ham keng o'rin berilgan. Ular ichida, ayniqsa, Qora amma ajralib turadi. Qora amma—mehribon, soda, bardoshli va jafokash ayol. Uning obrazida urush davridagi o'zbek onalarining siymosi tasvirlangan. U boshiga tushgan barcha ko'rgiliklarni sabr-bardosh bilan yengib o'zida yashashga kuch topadi. qora amma olti farzandini yerga qo'yib, bittagina Kimsaniniyer-u ko'kka ishonmasdan katta qildi. Yurtda mudhish urush boshlangach, miq etmay, el-yurt ishiga kamarbasta bo'lsin deb yolg'iz farzandi -Kimsanini urushga kuzatadi. Biroq o'g'li urushdan qaytmaydi, lekin mushtipar ona bu xabarga ishonmaydi. Hattoki, yillar o'tsada unga a'za ochmaydi. Ona... bu zotni ta'riflashga til ojizdir!

Romandagi yana bir ayol obrazi bu - Robiya. Afsuski, unga ham taqdir kulib boqmasdi. Yoshligida onasidan yetim qoladi va otasi tarbiyasida ulg'ayadi. Robiya juda aqlli, matonatli, go'zal bir o'zbek qizi sifatida asarda tasvirlanadi. Urush tugaganiga bir necha yil bo'lsada, sevgilisi Kimsanni sadoqat bilan kutishda davom etadi. Ammo... Ammo taqdirning gardishi bilan u o'zining tutungan tog'asiga turmushga chiqishga majbur bo'ladi. Ra'noning qilgan nomaqul ishlari uchun Robiya jabr chekadi. U sabrli, mehribon, irodali o'zbek ayoli sifatida barchaga na'muna bo'la oladi. Umuman olganda asar juda ham ta'sirli. Uning eng ta'sirli tomonlarini esa yuqorida keltirib o'tdim. Bu asarni o'qigan kitobxon hech qachon zerikmaydi va balki asar ichida yashaydi zamonaviy qilib aytganda 3D formatida ko'rgandek bo'ladi.

Xulosa:

Xulosa sifatida shuni aytishim mumkinki, asarda urush va urushdan keyingi yillardagi qishloq hayoti, urushning jamiki og'irliklarini, marhumlarini Azamat yelkasida ko'targan, o'zi yemay barchasini jangchilar og'ziga tutgan fidoyi dehqonlar jasorat madh qilingan. Nikoh kechasini ertasigayoq kuyovini jangga





jo'natib, o'zlari kelinlik liboslarini ish kiyimiga almashtirib og'ir va mashaqqatli mehnatlari, ota o'rniga ketmon ko'tarib dalaga chiqqan go'daklar, o'g'li o'rniga yer chopgan chol-u kampirlar ko'z o'ngingizda paydo bo'ladi. Siz ularning ovozini eshitasiz. Ularning qaddini tik ushlab turgan kuch g'alabaga ishonch edi. Urush yillarida chol-kampirlar ko'zlari nigoron bo'lib jigargo'dshalarini tonggacha duo qilib chiqqanlari ko'z oldingizga keladi...

Ochlik, yupunlik, ayriliqlar, erta hazon bo'lgan muhabbat alamlari, judolike, qarg'ish, yig'I, g'azab - hamma-hammasi romanda nihoyatda ishonarli tasvirlangan. Shu o'rinda ijodkorning mashhur jumlasini aytmoqchiman "Hamisha bir orzu bilan yashayman. Shunaqa kitob yozsangki, uni o'qigan kitobxon hamma narsani unutsa, asar qahramonlari hayoti bilan yashasa. Kitobni o'qib bo'lgan kuni kechasi bilan uxlolmay, to'lg'onib chiqsa. Oradan yillar o'tib asarni qo'liga qayta olganida tag'in hayajonlansa, yangi ma'nolar topsa. Eng katta orzuyim shu... " deb yozadi sevimli adibimiz, O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hoshimov, O'. (2013). Ikki eshik orasi. Roman.
2. Hoshimov, O'. (2009). Sakkizinchi mo'jiza. Toshkent.
3. Boltaboyev, H. (2011). El sevgan adib. Toshkent.
4. Dusenboyev, O. "Ikki eshik orasi" romani haqid.
5. Sharafiddinov, O. "Ikki eshik orasi" romani haqida
6. Ahmad, Said. "Ikki eshik orasi" romani haqida
7. Холикова, Н. (2020). Узбек мумтоз адабиётида хотин-кизлар образининг бадий тадрижи (Ширин образи мисолида). Academic research in

